XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 23-oktabr VI-89-149-9-128-K/24 Sirdaryo tumani

Sirdaryo tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeo selektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Sirdaryo tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastragentligining 2024-yil 11-martdagi Sirdaryo viloyati hokimligiga yuborilgan 04/08-2328-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Sirdaryo tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining bayoni maʼqullansin.

4. Sirdaryo tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Sirdaryo tumani bilan chegaradosh boʻlgan Sayxunobod va Mirzaobod tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻiga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi MIRZAAXMEDOV AKBARALI XXX

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 23-oktabrdagi
VI-89-149-9-128-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining

T A V S I F I

Qozogʻiston Respublikasi va Toshkent viloyati hamda Sirdaryo tumani chegara chiziqlari tutashgan joy, Sirdaryo daryosiga Boʻzsuv kanalini quyilishida joylashgan nuqta boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 kordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatlari 40°56ʻ34,936", sharqiy uzunlik koordinatlari 68°38ʻ32,890").*

A dan B gacha Toshkent viloyati yerlari bilan 1 - 6 nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi qoʻyidagicha:

1 - nuqtadanchegara chizigʻi Boʻzsuv kanalini quyilishidan Sirdaryo daryosi oʻzaniga oʻtadi va janubiy-sharqiy yoʻnalishda daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi 3184 metr masofani oʻtib, Toshkent-Samarqand temir yoʻli koʻprigida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55ʻ18,718", sharqiy uzunlik 68°40ʻ00,344").*

2 - nuqtadan chegara toʻgri chiziq orqali Toshkent-Samarqand temir yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzaniga oʻtadi va umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda daryo oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3723 metr masofani oʻtib, M-39 “Olmota-Termiz” avtomobil yoʻli koʻprigida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°54ʻ10,233", sharqiy uzunlik 68°41ʻ51,023").*

3 - nuqtadan chegara toʻgri chiziq orqali M-39 “Olmota-Termiz” avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzaniga oʻtadi va daryo oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 853 metr masofani oʻtib, Chirchiq daryosi quyilishida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°53ʻ56,297", sharqiy uzunlik 68°42ʻ22,240").*

4 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 26186 metr masofani oʻtib, Ohangaron daryosi quyilishida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47ʻ28,511", sharqiy uzunlik 68°50ʻ23,716").*

5 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5353 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 4943 metr masofani oʻtib, Toshkent viloyati, Sirdaryo va Sayxunobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43ʻ44,670", sharqiy uzunlik 68°54ʻ22,763").*

B danD gacha Sayxunobod tumani yerlari bilan 6 - 28 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

6 – nuqtdan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 168 metr masofada Sirdaryo daryosi oʻzanidan zovurga oʻtadi va umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 440 metr, keyin umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 269 metr, soʻngra umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 1085 metr masoda dala tuproq yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43ʻ23,602", sharqiy uzunlik 68°53ʻ25,061").*

7 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurdan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy yoʻnalishda 112 metr, keyin umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 596 metr, soʻngra umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 329 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43ʻ20,098", sharqiy uzunlik 68°52ʻ55,959").*

8 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan Shoʻr koʻliga oʻtadi va koʻl boʻylab umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 517 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, Bosh Qayirli zovur boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43ʻ30,484", sharqiy uzunlik 68°53ʻ11,934").*

9 – nuqtadan chegara chizigʻi avval Bosh Qayirli zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1298 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 482 metr, soʻngra umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1329 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ34,080", sharqiy uzunlik 68°51ʻ40,655").*

10 – nuqtadan cheagra chizigʻi Bosh Qayirli zovurni kesib oʻtib Qolgansir koʻliga tutashadi va koʻl boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 498 metr, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1366 metr masofani oʻtadi, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 42 metr masofada ariqni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1729 metr masofani oʻtib, R-26 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ52,451", sharqiy uzunlik 68°53ʻ35,750").*

11 – nuqtadan chegara chizigʻi R-26 avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha buriolishlarni hisobga olgan holda 1592 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2081 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 509 metr masofani oʻtib, yoʻl burilishida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46ʻ33,693", sharqiy uzunlik 68°52ʻ00,039").*

12 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1513 metr, keyin umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2149 metr masofani oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45ʻ00,949", sharqiy uzunlik 68°50ʻ30,527").*

13 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻli koʻprigidan Bosh Qayirli zovuriga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 163 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1338 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 14-

nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45‘38,494", sharqiy uzunlik 68°50‘05,719").*

14 – nuqtadan chegara chizig‘i Bosh Qayirli zovurining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2371 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda 2109 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47‘05,174", sharqiy uzunlik 68°48‘38,021").*

15 – nuqtadan chegara chizig‘i Bosh Qayirli zovurining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1778 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 480 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘l ko‘prigi bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47‘38,053", sharqiy uzunlik 68°47‘30,174").*

16 – nuqtadan chegara chizig‘i Bosh Qayirli zovurining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2793 metr masofada Axmanko‘l ko‘lini kesib o‘tib, keyin ko‘l bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 335 metr, so‘ngra umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 287 metr masofani o‘tib, ko‘l bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47‘51,757", sharqiy uzunlik 68°45‘13,663").*

17 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Axmanko‘l ko‘li bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 91 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1342 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 214 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1187 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 800 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 385 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib,zovur bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46‘08,453", sharqiy uzunlik 68°45‘05,235").*

18 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan zovurga o‘tib, janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 262 metr masofani o‘tadi, keyin zovurning o‘ng tomoni bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda 317 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 644 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45‘44,439", sharqiy uzunlik 68°44‘30,799").*

19 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2152 metr masofani o‘tib, keyin umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 816 metr masofada zovurn kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46‘29,649", sharqiy uzunlik 68°43‘06,034").*

20 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 503 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 422 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2935 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44‘41,874", sharqiy uzunlik 68°43‘20,089").*

21 – nuqtadan chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 948 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 254 metr, so‘ngra umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 331 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 22-

nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ30,212", sharqiy uzunlik 68°42ʻ24,068").*

22 – nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 854 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ03,454", sharqiy uzunlik 68°42ʻ33,235").*

23 – nuqtadan chegara Doʻstlik kanalini kesib oʻtib Sharqiy tashlama zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 554 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 638 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 579 metr, soʻng umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 464 metr masofada Shoʻroʻzak zovurini kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ19,286", sharqiy uzunlik 68°41ʻ31,151").*

24 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Shoʻroʻzak zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2667 metr masofada avtomobil koʻprigini kesib oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42ʻ55,434", sharqiy uzunlik 68°41ʻ57,484").*

25 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil koʻprigidan Shoʻroʻzak zovuriga oʻtadi va umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan 1990 metr masofada avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42ʻ03,606", sharqiy uzunlik 68°42ʻ25,451").*

26 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil koʻprigidan Shoʻroʻzak zovuriga oʻtadi va umumiy janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1436 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 271 metr masofani oʻtib, avtomobil koʻprigida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°41ʻ14,371", sharqiy uzunlik 68°42ʻ22,666").*

27 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil koʻprigini kesib oʻtib temir yoʻlga oʻtadi va temir yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5156 metr masofada temir yoʻlini kesib oʻtib, keyin yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 939 metr masofada temir yoʻlini kesib oʻtib, soʻng temir yoʻlining sharq tomoni bilan yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 1339 metr masofani oʻtib, Sirdaryo, Sayxunobod va Mirzaobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, yoʻl boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37ʻ20,665", sharqiy uzunlik 68°43ʻ35,825").*

D danE gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 28 - 32 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

28 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy yoʻnalishda 122 metr masofada temir yoʻlni, M-34 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, zovurga tutashadi va janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 129 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 918 metr masofada A-373 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37ʻ16,807", sharqiy uzunlik 68°42ʻ49,592").*

29 – nuqtadan chegara chizigʻi A-373 avtomobil yoʻlidan zovurga oʻtadi va gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 965 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1787 metr masofani oʻtib, zovur burilishida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36ʻ37,456", sharqiy uzunlik 68°41ʻ13,439").*

30 – nuqtadan chegara chizigʻi gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 320 metr, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2498 metr masofada Doʻstlik kanali boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35ʻ30,141", sharqiy uzunlik 68°40ʻ01,052").*

31 – nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalining suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 918 metr masofani oʻtadi, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 25 metr masofani oʻtib, Qozogʻiston Respublikasi hamda Mirzaobod, Sirdaryo tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, kanal oʻzanida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35ʻ58,020", sharqiy uzunlik 68°39ʻ47,390").*

E dan A gacha Qozogʻiston Respublikasi yerlari bilan 32 - 1 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

32-nuqtadan 1-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 40°56ʻ34,936", sharqiy uzoqlik 68°38ʻ32,890").*

Xalq deputatlari Sirdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 23-oktabrdagi
VI-89-149-9-128-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik
CHIZMASI

